# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 31-iyul, № 153 (8776) Chorshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!





## NAVQIRON AVLOD UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

*Prezidentimiz raisligida joriy yilning 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi hamda navqiron avlod vakillari bilan muloqot bo'lib o'tdi. Qizg'in ruhda kechgan ushbu tadbirlarda ko'tarilgan masalalar, belgilab olingan vazifalar ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Zero, bugun yurtimiz aholisining 18 milliondan ortig'ini yoshlar tashkil etmoqda. Ularning har tomonlama yetuk shaxslar bo'lib kamolga yetishi pirovardida O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlaydi.*

*Sir emaski, keyingi yillarda yigit-qizlarning zamonaviy kasblarni o'rganishi, xorij tillarini mukammal o'zlashtirishi uchun yangi imtiyoz va imkoniyat yaratilmoqda.*

### Nuqtai nazar

Prezidentimizning shu yil 27-iyundagi "yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan farzandlarimizning chet tillarni mukammal o'rganishi uchun yangi imkoniyatlar eshiklari ochildi.

Ushbu hujjatga ko'ra xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha (ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari) C1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarning o'qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etilayotir.

2024-yil 1-sentabrdan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar yoshlarning nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo'yicha xalqaro imtihon tizimlarida imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishi uchun ular tomonidan to'planishi lozim bo'lgan ballning (sertifikat darajasining) minimal ko'rsatkichi bir pog'ona pasaytiriladi hamda mazkur xarajatlar yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar doirasida qoplanadi.

→ 4

### Shukuh

## XALQLAR DO'STLIGI – TARAQQIYOT TAYANCHI

**Mamlakatimizda 30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni keng nishonlandi.**

Poytaxtimizda o'tkazilgan "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini topshirishga bag'ishlangan tantanali tadbirda bayram shukuhi yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

Tantanali tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, milliy madaniy markazlar faollari, madaniyat, san'at sohalari namoyandalari, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.

Ta'kidlanganidek, yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida boshlangan islohotlar jarayonida jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash eng ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Dunyo miqyosida bag'rikeng yurt sifatida e'tirof etiladigan jonajon Vatanimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elatlar hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo'lib yashamoqda. 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib borilmoqda.

→ 3

## Siyosiy partiyalar faoliyati rivojida aralash saylov tizimining o'rni qanday?

*Siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda fuqarolarning qarashlari, manfaat va maqsadlari mushtarakligi asosida jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqaradi.*

### Mushohada

Mamlakatimizda bugungi kunda beshta siyosiy partiya mavjud. Ya'ni O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi samarali faoliyat olib bormoqda.

Aytish joizki, siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda saylovlar muhim rol o'ynaydi. Yangi O'zbekiston sharoitida saylovlar nafaqat demokratiyaning muhim belgisi va ko'rinishi, balki uning zaruriy sharti hamdir. Shu nuqtayi nazardan, insonparvar demokratik tamoyillarga tayanuvchi yangi O'zbekistonda erkin saylovlarni munosib tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, saylovlar xalqqa davlat hokimiyatining yagona manbai sifatidagi siyosiy rolini amalga oshirish imkonini beradigan hal qiluvchi jarayon sanaladi.

→ 3

### Tadbir

## O'zbekiston – Belarus ayollari biznes forumiga tayyorgarlik jarayoni muhokamasi

*Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva rahbarligida Toshkent shahrida ikkinchi O'zbekiston – Belarus ayollari biznes forumini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaning yig'ilishi bo'lib o'tdi.*

Unda joriy yil 26-27-avgust kunlari o'tkazilishi rejalashtirilayotgan ikkinchi O'zbekiston – Belarus ayollari biznes forumiga tayyorgarlik ko'rish, uni yuqori saviyada tashkil etish va yangi hamkorlik shartnomalariga ega bo'lish, jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar hamda belgilangan vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Qayd etish joizki, mazkur biznes forumidan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston va Belarus tadbirkor ayollari biznes hamda iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash, yangi hamkorlik imkoniyatlarini izlash va mavjudlarini kengaytirish, tajriba almashish, ikki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish, o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishga xotin-qizlarni keng jalb qilishdan iborat.

Ikkinchi biznes forumida yetti seksiya, ya'ni xizmatlar sohasi hamda elektr-texnik sanoati, kimyo sanoati, yengil sanoat, qishloq va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, elektr va "yashil" energetika yo'nalishlari bo'yicha majlislar tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Seksiya majlislari va ko'rgazma o'tkaziladigan joylarda ikki mamlakat tadbirkor ayollari hamda davlat organlari o'rtasida "B2B" va "G2B" formatidagi uchrashuvlar, shuningdek, tijorat shartnomalari, bitimlar va hamkorlik memorandumlari tuzish bo'yicha kelishuvlarga erishish nazarda tutilgan.

**"Xalq so'zi".**

### Senator va hayot

## Mahalliy Kengashlar deputatlari va saylovchilar oldidagi mas'uliyat

*Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakolatlarini bir-biridan ajratish belgilab qo'yilgan bo'lib, bu muayyan talablarni kun tartibiga olib chiqadi.*

Aniq aytadigan bo'lsak, bu holat mahalliy Kengashlarning faoliyatini yanada takomillashtirishni, uning vazifa va vakolatlarini aniq belgilab qo'yishni hamda deputatlarning joylardagi muammolarga vaqtida munosabat bildirishini, zarur hollarda esa choralar ko'rishni talab etmoqda.

Shu bois Oliy Majlis Senati tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlarining saylovchilari oldida axborot berishiga doir namunaviy tartib ishlab chiqildi.

Ayni chog'da mazkur namunaviy tartibni respublikadagi barcha mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyatiga izchil joriy etish choralari ko'rilmoqda. Xususan, Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari bilan "ZOOM" platformasi orqali seminar o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan namunaviy tartibning mazmun-mohiyati deputatlarga batafsil tushuntirib berildi.

Bu jarayonda namunaviy tartib bilan deputatning axborot berishini tashkil etish, saylovchilarni axborot beriladigan joy va vaqt to'g'risida oldindan xabardor qilish, axborot berish jarayonida davlat organlari va tashkilotlari ishtirokini ta'minlash va ularning bu boradagi vazifalari belgilab berilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Qolaversa, ushbu namunaviy tartibda deputat axborotida qayd qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va ularga qo'yilgan talablar, saylovchilar bilan uchrashuvda aniqlangan muammoli holatlarni o'rganish hamda ularning deputat tomonidan hal etilishi kabi muhim normalar belgilab qo'yilayotir.

→ 2

### Hamkorlik

## Toshkentdagi ShHT MATT Ijroiya qo'mitasida Belarus Respublikasi davlat bayrog'i ko'tarildi

*30-iyul kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (ShHT MATT) Ijroiya qo'mitasining Toshkent shahridagi qarorgohida Belarus Respublikasi davlat bayrog'ini ko'tarishga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.*

Tadbirda O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati vakillari, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar, kuzatuvchilar va muloqot bo'yicha hamkor mamlakatlarning diplomatik vakolatxonalari rahbarlari, ShHT MATTdagi ushbu tuzilmaga a'zo davlatlarning doimiy vakillari hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

→ 3

## O'ZBEKISTON MAMLAKAT YETAKCHISI RAHNAMOLIGIDA JAHON SPORTIDA YANADA KO'PLAB G'ALABALARNI QO'LGA KIRITADI




*Singapur kurash federatsiyasi vitse-prezidenti Xo Si Son "Dunyo" AA uchun intervyusida hamyurtimiz Diyora Keldiyorovaning "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida qo'lga kiritgan ulkan g'alabasi haqidagi fikrlarini bildirdi:*

### E'tirof

– Avvalo, Singapur kurash federatsiyasi nomidan O'zbekistonni dzyudochi Diyora Keldiyorovaning Parijda o'tayotgan yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ajoyib g'alabasi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Har to'rt yillikning asosiy sport tadbirida, haqiqatan ham, muhim voqea yuz berdi. Finalda Diyora amaldagi Olimpiya chempioni, kosovolik Distriya Krasnichini mag'lubiyatga uchratib, o'zining mukammal sport formasida ekanini namoyish etdi. Yakunda o'zbekistonlik atlet "Parij – 2024" oltin medalini qo'lga kiritdi. Uning ushbu yutug'i nafaqat Olimpiya o'yinlaridagi g'alaba, balki "jahon dzyudosi yetakchisi" maqomining tasdig'i hamdir.

Ta'kidlash kerakki, final yo'lida hamyurtingiz jahonning eng kuchli sportchilarini mos ravishda mag'lub etdi. U ilgari tengsiz hisoblangan yaponiyalik Uta Abeni, germaniyalik Masha Balxausni va fransiyalik Amandin Byusharni ishonchli tarzda mag'lub etib, barchadan kuchli ekanini isbotladi.

Diyora Keldiyorova, shuningdek, yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan birinchi o'zbekistonlik ayol sportchi sifatida tarixga kirdi. Olimpiya o'yinlarida erishilgan ushbu zafar yangi O'zbekistonning jahon miqyosida tan olinayotgan ajoyib yutuqlari timsolida ham namoyon bo'ldi. Chempionni birinchilardan bo'lib O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tabriklagani va uning g'alabasini tarixiy deb atagani bejiz emas.

O'zbekiston mamlakat yetakchisi rahnamoligida jahon sportida yanada ko'plab g'alabalarni qo'lga kiritishiga ishonaman.

**"Dunyo" AA.**
Singapur

# Mahalliy Kengashlar deputatlari va saylovchilar oldidagi mas’uliyat

1 Seminar davomida mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan bugungi kunga qadar saylovchilarga axborot berishning aniq mexanizmi yo‘qligi hamda jarayon tizimlashtirilmagani va saylovchilarga axborot berishni tashkil qilishda deputatlar tomonidan turli yondashuvlar mavjudligi va bu amaliyotda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani aytildi.

O‘z navbatida, tadbir ishtirokchilari tomonidan deputat axboroti mazmun-mohiyati, saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan muammolarni hal etish tartibi, davlat va nodavlat tashkilotlarning ishtiroki kabi muhim holatlar tartibga solinmagani ham urg‘ulandi.

Anjumanda bu namunaviy tartibni amaliyotga joriy qilish orqali mahalliy Kengashlar deputatlarining o‘z saylovchilari oldida axborot berish jarayonini tizimlashtirish hamda unda bir xil yondashuvni ta’minlash va uchrashuvlarda saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan masalalarning hal etilishi ustidan izchil va samarali deputatlik nazoratini o‘rnatishga erishilishi alohida ta’kidlab o‘tildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Deputat fikri**

Fuqarolar murojaatlari:

# ILGARI SURILGAN TAKLIFLAR QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA

*Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash, joylarda to‘planib qolgan muammolarga ijobiy yechim topish va ularni tizimli ravishda hal etish, odamlarni rozi qilish, insonni ulug‘lash, uning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.*

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, xususan, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini ta’minlash yuzasidan keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari tashkil etilgani jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilish, davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmini joriy etish imkonini berdi.

Qayd etish joizki, o‘tgan davrda barcha darajadagi tashkilotlar o‘z faoliyatini bevosita hududlarda, mahallalarga kirib borgan holda tashkil etdi. O‘z navbatida, quyi palata deputatlari ham joylarda aholi bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan muammolarni hududning o‘zida o‘rganib, hal etish choralarini ko‘rmoqda. Jumladan, murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyat samaradorligini kuchaytirish, deputatlarning saylovchilar oldidagi hisobdorligini yanada oshirish, aholining turmush tarzini o‘rganish, joylarda uchrashuvlar tashkil etish hamda aniqlangan muammolarni parlament nazorati shakllaridan foydalangan holda hal qilishga alohida e’tibor qaratildi.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Qonunchilik palatasida jismoniy va yuridik shaxslar vakillarining qabuli tashkil etildi. Fuqarolardan kelib tushgan 3 mingdan ziyod murojaatlarning barchasi mutasaddi vazirlik va idoralar mutasaddilari jalb etilgan holda ko‘rib chiqildi.

Ayonki, parlamentda ko‘rib chiqilayotgan qonun loyihalarining yanada mukammal bo‘lishi, pishiq-puxta tayyorlanishi aholi tomonidan bildirilgan takliflarga bevosita bog‘liq. Shu ma’noda aytganda, o‘tgan davrda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir 207 ta taklif kelib tushgan. Ularda, asosan, Jinoyat, Soliq, Bojxona, Oila, Fuqarolik, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan taklif hamda fikr-mulohazalar bildirilgan. Mazkur takliflar mas’ul qo‘mitalar tomonidan atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Misol uchun fuqarolar I. Rasulov va X. Qurbonovaning “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘yicha takliflari Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan murojaatchilar ishtirokida muhokama etildi hamda mazkur qonun loyihasini maromiga yetkazishda foydalanilgan.

Shuningdek, Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi tomonidan fuqaro E. Boltayevning “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste’molchining huquqlari kafolatlarini ta’minlashga doir o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan yo‘llagan taklifi belgilangan tartibda ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bola huquqlarini yanada mustahkamlash bo‘yicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi yuzasidan fuqarolardan kelib tushgan 70 dan ortiq takliflar Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi tomonidan vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida alohida ishchi guruh tashkil etilgan holda ko‘rib chiqilmoqda.

Fuqarolar murojaatlarida keltirilgan takliflar turli sohalardagi tizimli masalalarni qonun doirasida hal etish, pirovard natijada “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash imkonini beradi.

**Xayrullo G‘AFFOROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.**

# Mustahkam huquqiy asos va parlament nazorati

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab majlisga raislik qiluvchi quyi palata Spikeri o‘rinbosari O. Tojiyev mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqeliklarga, jumladan, yozgi Olimpiya o‘yinlarining dzyudo bahslarida oltin medalni qo‘lga kiritgan hamyurtimiz Diyora Keldiyorovaning yutug‘i haqida ham to‘xtalib o‘tdi.*

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**



Shuningdek, mamlakatimizda start olgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari saylovi kampaniyasi haqida alohida to‘xtalib, ushbu saylov demokratik davlatchilikning yorqin namunasi, fuqarolarimizning saylash va saylanish, davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirishda ishtirok etishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishning muhim vositasi ekanini alohida qayd etdi.

30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan davlat rahbarining tabrigi, unda bildirilgan fikrlarga ham urg‘u berib, xalq vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarda ushbu muhim sananing jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini aholiga yetkazishda faol bo‘lishi lozimligini ta’kidladi.

Shundan so‘ng majlisda kun tartibidan o‘rin olgan qator qonun loyihalari va parlament nazoratiga oid masalalar ko‘rib chiqildi.

## Prokuratura endilikda o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalariga oid jinoyatlarni tergov qiladi

Majlisda yer uchastkalaridan samarali foydalanish hamda sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik bilan bog‘liq qilmishlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda. Xususan, Jinoyat, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat-protsessual kodekslarida yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish bilan bog‘liq jinoyatlar prokuratura organlarining tergoviga taalluqli ekanligi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslari cudlarda o‘zboshimchalik bilan egallangan davlat egaligidagi yer uchastkalarini qaytarish hamda noqonuniy qurilmalarni buzib tashlashga oid ishlarni ko‘rib chiqishning alohida tartibini belgilovchi normalar bilan to‘ldirilmoqda.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolik va iqtisodiy sudlarga yer to‘g‘risidagi qonun buzilishi bilan bog‘liq



ariza kiritganda davlat bojidan ozod etilishi belgilanmoqda.

Deputatlarning qayd etishicha, qonun loyihasi yer resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta’minlash, yerlarni noqonuniy egallab olishning oldini olish, yer qonunchiligiga rioya etishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi moddama-modda ko‘rib chiqildi va deputatlar tomonidan uchinchi o‘qishda qabul qilindi.

## Suv kodeksi loyihasida qanday normalar aks etyapti?

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Suv va suvdan foydalanish sohasida yagona huquqiy hujjat yaratish maqsadida ishlab chiqilgan Suv kodeksi loyihasida qator muhim normalar o‘z aksini topmoqda. Jumladan, suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasida Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, vazifa va funksiyalariga aniqlik kiritilyapti. Qolaversa, suvni yetkazib berish xizmati uchun to‘lovlar suv yetkazib berish xarajatlarini qoplashi hamda suv yetkazib beruvchining rentabelligini ta’minlashi zarurligi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish shartlari nazarda tutilib, suvdan foydalanish uchun ruxsatnoma berish shartlari soddalashtirilyapti.

Qonun loyihasi bilan suv fondi yerlari, jumladan, tabiiy suv manbalari hududlari (daryolar, soylar, jilg‘alar, ko‘llar, botqoqliklar va buloqlar) Suv xo‘jaligi vazirligi va uning hududiy tizim tashkilotlarining balansiga o‘tkazilishi ham taklif qilinmoqda.

Majlisda ta’kidlanganidek, suvga doir munosabatlarda xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari aks etyapti. Suv kodeksi loyihasida havolaki normalar chiqarib tashlanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan normalar kiritilayotir. Shu sababli ushbu kodeks qabul qilinishi bilan Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari va ular bilan tasdiqlangan nizom va tartiblar bekor qilinadi.

Kodeks suvdan oqilona foydalanish, samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy shart-sharoitlar yaratishga, suv yetkazib beruvchilar va iste’molchilarning mas’uliyatini oshirishga, suvdan foydalanishda ruxsatnoma olish tartibi soddalashtirilishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar o‘rtaga tashlandi, ayrim normalar bo‘yicha izohlar so‘raldi. Qonun tashabbuskorlari tomonidan yetarli javoblar berilganidan so‘ng ushbu hujjat deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

## Mintaqa yoshlarini birlashtirishga qaratilgan hujjat ratifikatsiya qilinadi

Majlisda ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – “Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi Bitimni (Dushanbe, 2023-yil 14-sentabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, ushbu Bitimni tuzish tashabbusi 2022-yil 21-iyulda Cho‘lponotada o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining IV maslahat uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan. Bitim mintaqa yoshlarini birlashtirish va o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash yo‘lidagi muhim hujjat sanaladi.

Bitimning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarni Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotiga jalb qilish;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirish;
- sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan turli dasturlarni ishlab chiqish;
- ilg‘or tajriba almashish hamda ilmiy-innovatsion hamkorlikni rivojlantirish;
- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish;
- iste’dodli, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarning ijtimoiy zaif guruhlarini, jumladan, imkoniyati cheklangan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan choralar ko‘rish shular sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, Bitimda yoshlar ishtirokida ommaviy tadbirlar, loyihalar, davlatlararo aksiyalar, seminarlar, munozara klublari, davra suhbatlari, forumlar va mintaqadagi yoshlar siyosatining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan konferensiyalarni tashkil etishga ko‘maklashish masalalari ham o‘z aksini topgan.

Muhokama chog‘ida deputatlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi ushbu Bitimning tashabbuskori va depozitariysi sifatida uni birinchilardan bo‘lib ratifikatsiya qilishi, ushbu xalqaro hujjatning kuchga kirishi uchun Markaziy Osiyoning qolgan davlatlari ham ichki tartib-taomillaridan o‘tkazishiga turtki bo‘lishi alohida ta’kidlandi.

Deputatlarning fikricha, mazkur Bitimning ratifikatsiya qilinishi Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlar siyosati sohasida sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi, mintaqadagi yoshlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Ijtimoiy faol aholi kambag‘al oilalar toifasiga tushib qolmaydi

Majlisda “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lanadigan nafaqalar turlari belgilanmoqda. Xususan, kasallik, ya’ni ishchilarning betobligi sababli mehnatga layoqatsizligi davri uchun to‘lanadigan, “dekret” – ayollarning tug‘uruqqacha va tug‘uruqdan keyingi davri uchun to‘lanadigan, ishdan bo‘shatish, ya’ni fuqarolarning vaqtincha ishsizligi davrida to‘lanadigan nafaqalar shular jumlasidan.

Shuningdek, loyihada Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan aholini sug‘urtalash tizimi joriy etilishi belgilanayotir. Xususan, inson hayoti va faoliyati davomida vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganida (o‘zi yoki farzandi kasal bo‘lganida, qisqa davolanishda, tug‘uruq davrida) yoki ishsiz qolganida Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi.

Qonun loyihasi bilan mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshirilishi belgilanmoqda:

*Birinchi bosqichda* – 2025-yil 1-iyuldan boshlab, barcha sug‘urtalangan ayollarga, ularning bandlik va mehnat faoliyati turi, sug‘urtalash manbasidan qat’i nazar, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lab beriladi;

*Ikkinchi bosqichda* – 2026-yil 1-yanvardan barcha sug‘urtalangan jismoniy shaxslarga, ularning bandlik va mehnat faoliyati turi, sug‘urtalash manbasidan qat’i nazar, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lab beriladi;

*Uchinchi bosqichda* – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan sug‘urtalangan shaxslarga ishsizlik nafaqasi va boshqa turdagi to‘lovlar joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Deputatlarning ta’kidlashicha, qonun loyihasi faoliyat turidan qat’i nazar, ishlayotgan xodimlarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi hamda ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘liq to‘lanishiga, ijtimoiy faol aholining kambag‘al oilalar toifasiga tushib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Qizg‘in muhokama va munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirib, uni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha qator takliflarni ilgari surdi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

## “Tashabbusli budjet”ning amaldagi tartibiga o‘zgartirishlar kiritilmoqda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2024-yil 11-iyun kuni bo‘lib o‘tgan majlisida Bosh vazir o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorovga “Tashabbusli budjet asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish va ularning natijadorligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida” Qonunchilik palatasining parlament so‘rovi yuborilgan edi.

Unda fuqarolar takliflari asosida shakllangan “Tashabbusli budjet” loyihasini yanada takomillashtirish, tanlov g‘oliblarini aniqlashda inson omilini mumkin qadar qisqartirish borasida ko‘rilayotgan choralar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish so‘ralgandi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so‘roviga yuborilgan javobni ko‘rib chiqdi.

Parlament so‘rovi javobida keltirilishicha, “Tashabbusli budjet” jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida ovoz berish bosqichi haqqoniy o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida joriy yil birinchi mavsumdan boshlab “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili joriy etildi. Fuqarolarga qulaylik yaratish uchun “Ochiq budjet” portalining “Android” va “IOS” tizimlarida ishlaydigan mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ovoz berish imkoniyatini beruvchi “Telegram” botlar ishga tushirildi. Fuqarolarga g‘olib loyihalarni moliyalashtirish holatini real vaqt ko‘rinishida kuzatib borish imkoniyati joriy etilgan.

Bundan tashqari, keng jamoatchilik va deputatlar takliflari inobatga olinib, amaldagi tartibga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutilmoqda:

aholi soni kichik bo‘lgan mahallalarning g‘olib bo‘lish imkoniyatini yaratish maqsadida doimiy tarzda g‘olib bo‘lib kelayotgan mahalla (tashkilot) larga tanaffus e’lon qilish amaliyotini joriy etish;

xodimlarni majburiy ovoz to‘plashga jalb qilish holatlarini bartaraf etish maqsadida ovoz berish bosqichi muddatini 10 kunga kamaytirish, majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni g‘olib loyihalar ro‘yxatidan chetlatish amaliyotini joriy etish;

xalq deputatlari hududiy Kengashlarining vakolatlarini kengaytirish maqsadida tuman (shahar) budjetidan qo‘shimcha mablag‘ ajratish hisobiga g‘olib bo‘lmagan loyihalarni qo‘shimcha g‘olib sifatida e’lon qilish amaliyotini joriy etish nazarda tutilmoqda. Ushbu hujjat loyihasi ishlab chiqilib, ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun Oliy Majlis Senatiga taqdim etilgan.

Majlisda “Tashabbusli budjet” loyihalarini shakllantirish, loyihani tanlash, tanlov g‘oliblarini aniqlashda inson omilini imkon qadar qisqartirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinayotgani qayd etildi. Misol uchun, ichki yo‘llar bo‘yicha loyihalarni shakllantirishda yo‘lning uzunligidan kelib chiqib, loyiha qiymati Portal tomonidan avtomatik tarzda hisoblab chiqilishi joriy etilgan. Ishchi komissiya tomonidan loyihalarni saralab olish to‘liq avtomatlashtirilib, saralash bosqichi shaffof tarzda amalga oshirilishi ta’minlangan.

Shu bilan birga, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan 2023-yil va 2024-yilning o‘tgan davrida ajratilgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Majlisda parlament so‘roviga berilgan javobda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha atroflicha ma’lumotlar taqdim etilgani qayd etilib, iqtisodiyot va moliya vazirining javobi ma’lumot uchun qabul qilindi.

## Bolalar va o‘smirlar salomatligi – ustuvor masala

Majlisda sog‘liqni saqlash vaziri vazifasini bajaruvchi A. Xudoyorovning “Mamlakatimizda bolalar va o‘smirlar orasidagi kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasidagi istiqbol rejalar to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida onalar va bolalar o‘rtasida kasalliklar profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog‘lomlashtirish dasturlarining amaliyotga joriy etilgani, shuningdek, onalar va bolalarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam takomillashtirilishi natijasida onalar o‘limi darajasi 34 foizga, besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi darajasi 26 foizga kamaygan.

Respublika miqyosida, hududlarda va tuman (shahar)larda “365 kun /24 soat” tamoyiliga asosan onalar va bolalarga ko‘rsatiladigan yordamni nazoratga olish, tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Bolalarga ambulator tibbiy xizmat 2300 dan ziyod oilaviy poliklinikalar, 209 ta tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika, statsionar yordam esa 13,3 mingta o‘ringa ega 245 ta viloyat va tuman darajasidagi hamda 9 ta respublika muassasasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limlari va poliklinikalarda bolalar bo‘limlari tashkil etilgan. Shuningdek, barcha “tibbiyot brigadalari” tarkibiga qo‘shimcha 20 ming bolalar hamshirasi hamda patronaj-doya lavozimi joriy etilgan. Tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida bolalar bo‘limlari, “Qizlar salomatligi” bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

A. Xudoyorovning qayd etishicha, kardiojarrohlik sohasi bo‘yicha har yili tug‘ma yurak nuqsoni bilan tug‘ilgan yuqori texnologik operatsiyalarga muhtoj bolalarga respublikaning 8 ta tibbiyot muassasasida kardioxirurgik amaliyotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Majlisda bu borada qilinayotgan ishlar raqamlar va ko‘rsatkichlarda keltirib o‘tildi.

Deputatlar sohada amalga oshirilayotgan ishlarni e’tirof etib, tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy uskuna va sarflov ashyolari bilan to‘liq ta’minlash choralarini ko‘rish, bunda kafolatlangan paket, bazaviy narxlar va imtiyozli kontingentni ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga yo‘llash tartibini qayta ko‘rib chiqish lozimligini qayd etdi.

Shuningdek, tibbiyot muassasalarida masofaviy xizmatlarni ko‘paytirish, poliklinika va shifoxonalarni elektron ish yuritishga o‘tkazish, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish borasida boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish choralarini ko‘rish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollikni oshirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha qator takliflar ilgari surildi.

Majlisda A. Xudoyorovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinib, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta’minlashga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Xo‘jaoboddagi “FayzM” MChJ Buloqboshi tumanida yangi tikuv korxonasini ishga tushirishi bilan 1000 ta ish o‘rni yaratildi.**

# XALQLAR DO'STLIGI – TARAQQIYOT TAYANCHI

← 1

So'nggi yetti yilda O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida ro'y bergan ulkan o'zgarishlar natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida samimiy do'stlik, azaliy qardoshlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik muhiti yaratildi. Bu yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik muhitiga, xalqimizning xohish-istaklari hamda orzu-o'ylariga g'oyat uyg'undir.

Zero, tinchlik-totuvlik bor joyda taraqqiyot, ezgu maqsadlar sari intilish bo'ladi. Mamlakatimizda turli millat va elat vakillari yagona oila a'zolaridek inoq yashab, hamjihatlikda mehnat qilayotgani, yurtimiz rivojiga birga hissa qo'shayotgani so'zimiz isboti.

Anjumanda bir guruh hamyurtlarimizga "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni topshirildi. Mukofotlanganlar mamlakatimizda osoyishtalik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ezgu tashabbuslar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Komilov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov ishtirok etdi.

**"Xalq so'zi".**

# Toshkentdagi ShHT MATT Ijroiya qo'mitasida Belarus Respublikasi davlat bayrog'i ko'tarildi



← 1

Belarusning Shanxay hamkorlik tashkilotiga rasman a'zo bo'lishi haqidagi qaror 2024-yil 4-iyul kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan ShHT Davlat rahbarlari kengashining 24-yig'ilishida qabul qilindi. Shu paytdan boshlab, Belarus mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan 10-davlatga aylandi.

Toshkentdagi tadbir ShHTga a'zo mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Yuqori darajadagi shaxslar va diplomatlar ishtirokining o'ziyoq bu voqeaning ahamiyatini va ShHT a'zo davlatlarining tashkilot tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi.

Belarusning ShHTga a'zo bo'lishi, mamlakatning xalqaro maydondagi pozitsiyalarini mustahkamlaydi, shuningdek, respublikani mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ko'p tomonlama tashabbuslarda faol ishtirokchiga aylantiradi.

**"Dunyo" AA.**

# Siyosiy partiyalar faoliyati rivojida aralash saylov tizimining o'rni qanday?

← 1

2023-yil 18-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga ko'ra, mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov (majoritar-proporsional) tizimi asosida o'tkazilishi belgilandi.

Xo'sh, aralash saylov tizimi siyosiy partiyalar rivojida qanday o'rin tutadi?

Saylov kodeksining 37-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga faqat siyosiy partiyalar egadir. Mamlakatimizda joriy qilingan aralash saylov tizimi bo'yicha siyosiy partiyalar quyidagi ikki xil usulda o'z nomzodlarini vakillik organiga ko'rsatishi mumkin:

*birinchi usul* – bir mandatli saylov okruglaridan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar bo'lib *(majoritar saylov tizimi)*, unda siyosiy partiya bir mandatli saylov okruglarining har biridan bittadan jami 75 ta deputatlikka nomzodni ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur tizimda bir mandatli saylov okruglari bo'yicha o'tkaziladigan saylovlarda saylov byulleteniga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarning ism-sharifi kiritilgan bo'ladi.

*Ikkinchi usul* bo'yicha Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlariga partiya ro'yxati asosida nomzodlar ko'rsatiladi *(proporsional saylov tizimi)*. Mazkur usulga ko'ra, yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlarning ro'yxatiga kamida 75 nafar, ko'pi bilan 100 nafar nomzodlar kiritilishi lozim.

Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar shu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari bu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas. Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro'yxatiga kiritiladi.

Partiya ro'yxatiga bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar kiritilishi mumkin emas. Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek, partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

> ***Aralash saylov tizimida siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ko'proq deputatlik o'rnini egallash imkoniyati kengayadi. Ya'ni Saylov kodeksining 96-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. Mazkur tartib parlamentda siyosiy partiyalarga o'rin egallash imkoniyatini beradi. Bu esa vakillik organi faoliyatida partiyaning o'rni va rolini oshirishga xizmat qiladi.***

Aralash saylov majoritar va proporsional saylov tizimining ijobiy jihatlarini o'zida uyg'unlashtirgan. Shu bois ham, mamlakatimizda har ikki tizimning afzalliklarini inobatga olgan holda *aralash saylov tizimi* joriy qilindi.

Ta'kidlash lozimki, aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida va davlat boshqaruvidagi tutgan o'rni va roli, faolligi oshishiga xizmat qiladi, buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

*birinchidan, siyosiy partiyalar mavqeini oshirishga xizmat qiladi.*

Shu paytgacha bo'lib o'tgan parlament saylovlarida siyosiy partiyalar vakillik organlarida ko'proq o'rin egallash maqsadida, eng avvalo, nomzod ko'rsatish jarayonida saylov okrugining o'ziga xosligi, mazkur saylov okrugida nomzodning shaxsi, obro'-e'tibori, individual qobiliyati va fazilatlari kabi jihatlariga e'tibor qaratgan. Siyosiy partiyaning g'oya va maqsadlarini ilgari surishga esa yetarli e'tibor qaratilmagan.

Aralash saylov tizimida siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ko'proq deputatlik o'rnini egallash imkoniyati kengayadi. Ya'ni Saylov kodeksining 96-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. Mazkur tartib parlamentda siyosiy partiyalarga o'rin egallash imkoniyatini beradi. Bu esa vakillik organi faoliyatida partiyaga o'rni va rolini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, partiya fraksiyalari orqali qonun ijodkorligi va parlament nazorati faoliyatida faol bo'lishga olib keladi. Amaldagi qonunchilikda fraksiya Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati organlarining va ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etish, hukumat a'zolarini ularning faoliyati yuzasidan eshitish to'g'risida masala qo'yish va fraksiyaning faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib olish kabi vakolatlarga ega. Mazkur vakolatlardan ko'rish mumkinki, aralash saylov tizimi orqali partiyalar mavqei oshadi, natijada parlamentda muhim vakolatlarga ega bo'ladi.

Majoritar saylov tizimida partiyalar saylovoldi tashviqotida aynan nomzodlarga ko'proq e'tibor qaratishi natijasida, saylov kuni fuqarolar nomzodning qaysi partiyadan ko'rsatilganiga e'tibor qaratmasdan ovoz beradi. Aralash saylov tizimida esa deputatlikka nomzodning shaxsi bilan bir qatorda partiyaning obro'si ham birinchi darajaga chiqadi.

*Ikkinchidan, siyosiy partiyalar o'rtasida raqobatli siyosiy maydon shakllanadi.*

Partiyalararo siyosiy raqobatning tabiati mamlakatda saylov tizimi qanday yo'lga qo'yilgani bilan ham bog'liq. Mamlakatimizda joriy qilingan aralash saylov tizimi partiyalararo raqobatning eng yaxshi tomonlarini olish imkonini beradi.

Aslida ham, keng ijtimoiy guruhlar qarashlarini ifodalaydigan va manfaatlarini himoya qiladigan siyosiy partiyalar uchun raqobatli siyosiy maydon yaratish muhim. Faol siyosiy raqobat muhiti mavjudligi esa demokratiyaning muhim belgisidir. Ayniqsa, siyosiy partiyalar o'z partiyaviy g'oyalarini himoya qilish maqsadida siyosiy maydonda raqobatga kirishadi. Bu orqali o'z elektoratlari va xayrixohlari manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi.

Aralash saylov tizimi mana shunday siyosiy muhitni yaratishda muhim o'rin tutadi. Xususan, raqib partiyalarni tanqid qilishga berilib ketishdan ko'ra, o'z saylovoldi dasturlari afzalliklariga urg'u berish, faol tarafdorlar va ko'ngillilarni safarbar etish ularning saylovda ovoz olishining muhim kafolati hisoblanadi. Umuman, shaxslar o'rtasida emas, balki g'oyalar o'rtasida raqobat bo'ladi. Va aynan mazkur tizim ko'p partiyaviylik tizimining rivojlanishiga xizmat ham qiladi.

*Uchinchidan, siyosiy partiyalarni saylov jarayoniga mas'uliyatli yondashishga undaydi.*

Aralash saylov tizimi siyosiy partiyalardan saylovoldi dasturini amalga oshirish uslubi va natijalari hamda jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

O'z navbatida, mazkur tizim partiyalarni saylovga nisbatan yangicha strategik yondashishga undaydi. Jumladan, saylovlar oldidan har bir siyosiy partiya o'zining saylovoldi dasturi va siyosiy platformasini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor qaratadi. Siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar va partiyaviy ro'yxat uchun alohida yondashuvlarni shakllantirishi lozim bo'ladi.

Partiyalar targ'ibot va tashviqotning zamonaviy usullaridan foydalanishga, jamiyat va davlat hayotidagi muhim masalalarni hal qilish bo'yicha o'zining qat'iy pozitsiyasini aniq bayon etishga alohida e'tibor qaratadi.

Aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarni o'z taniluvchanligini oshirish borasida quyidagi masalalarga ahamiyat berishga undaydi: maqsad va vazifalarni aniq belgilash; partiya dasturlarini saylovchilarga yetkazishning tushunarli shakllaridan foydalanish; partiya imijini ko'tarishga erishish; partiyani targ'ibot qilish uchun vositalarni to'g'ri tanlash; xalqchil ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy takliflarni ilgari surish.

Saylov targ'ibot materiallarini shakllantirishda partiyaning jamiyat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni teran tushunishini ko'rsatish muhim. Buning uchun taklif etilayotgan dasturda saylovchilar tomonidan ustuvor deb qabul qilingan muammolar yechimi ilgari surilishi lozim. Dasturdan o'rin olgan maqsad va vazifalar nomzodlar da'vo qilayotgan hokimiyat bo'g'ini vakolatlari bilan bog'langan holda tahrir qilinishi zarur. Partiya dasturida jamiyatdagi mavjud muammolarni, hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda partiyaning qo'shishi mumkin bo'lgan hissasini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Aralash saylov tizimi siyosiy partiyalar rivojida muhim rol o'ynab, siyosiy maydonda raqobatli muhit yaratishga, ularni saylovlarga jiddiy yondashishga undash bilan bir qatorda jamiyatda mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

**Dilmurod ORTIQOV,**
**Sudyalar oliy maktabi dotsenti, PhD.**

# "DILOROM DO'RMAN" MAHSULOTLARI XORIJDA HAM XARIDORGIR

*Karmana tumanida faoliyat boshlagan "Dilorom Do'rman" mas'uliyati cheklangan jamiyatida bugun Do'rman, Kumushkon, Qahramon va Hazora mahallalaridan 50 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlangan.*

## Tadbirkorlik

Bolalar kiyimlari tikishga ixtisoslashtirilgan ushbu tikuv korxonasi 2021-yilda tashkil etilgan. Unda 20 turdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilib, bir kunlik quvvat 2 ming donaga teng.

– Biz, asosan, yarimtayyor mahsulotlar bilan ishlaymiz, – deydi korxona rahbari Asadbek Ahtamov. – Poytaxtdagi bolalar kiyimlari ishlab chiqaradigan "Bonito Kids" va "Biryuza Group" korxonalari bilan shartnoma tuzganmiz. Ulardan bichim ko'rinishidagi mahsulotlarni buyurtma asosida qabul qilib, tayyor mahsulot holida qaytaramiz. Eksport ham ular orqali amalga oshiriladi. Mahsulotlarimiz Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinmoqda.

Korxonada mavsumga qarab bolalar kiyimlari tikiladi. Tadbirkor imtiyozli kredit olib, yana 50 ta tikuv uskunasi o'rnatish harakatida. Bu qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bilan birga, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va eksport salmog'ini ham oshirishi tayin.

– Mehnat jamoamizning 30 foizini "yoshlar daftari", "ayollar daftari"da turgan xotin-qizlar tashkil etadi, – deydi korxona tikuv ustasi Nafisa Adizova. – Navoiy shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi bilan shartnomamiz bor. Yangi ishga qabul qilingan qizlar o'sha yerda 3 oylik maxsus kurslarda o'qitiladi.

Korxonada bichim ko'rinishidagi materiallar tayyor mahsulot holiga keltirilguncha 20 bosqichdan o'tadi. Mahsulot sifati har bir bosqichda alohida nazorat qilinadi. Yaqin kelajakda "Dilorom Do'rman" brendi yaratilib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning Yevropa bozorida ham raqobatbardoshligini ta'minlash ustida ish olib borilmoqda.

**Temur ESHBOYEV**
**("Xalq so'zi").**

# TAXTAQORACHADA ISHLAR A'LO. QOVCHINDA-CHI?


Тахтақорача:
ҚАДРИНИ ТОПМАЁТГАН ГЎЗАЛЛИК...
Таассуф

*Gazetamizning shu yil 2-aprel kungi sonida chop etilgan "Taxtaqoracha: qadrini topmayotgan go'zallik..." sarlavhali maqola yuzasidan biroz kechikib bo'lsa-da, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasidan javob oldik.*

## Tahririyat pochtasidan

Unda qo'mita raisining birinchi o'rinbosari D. Abdusalamov "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarining har bir soni Turizm qo'mitasi markaziy apparati, shuningdek, barcha tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalari xodimlari tomonidan katta qiziqish bilan kuzatib borilishini ta'kidlab, maqolada ko'tarilgan masalalar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot bergan.

Qayd etilishicha, bugungi kunda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi Taxtaqoracha dovoni hududida xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 8-iyuldagi "Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Samarqand viloyati Urgut tumanida "Qoratepa-Omonqo'ton tog' turizm klasteri" tashkil qilinishi rejalashtirilgan. Unga ko'ra, aholi va sayyohlar uchun barcha qulaylikka ega turizm maskanlari barpo etiladi. Jumladan, tumanda joriy va kelgusi yilda aholi hamda sayyohlar uchun zarur sharoitlarga ega zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turarjoylar, savdo-ko'ngilochar markazlarini tashkil qilish ko'zda tutilgan. Tumandagi bo'sh yer uchastkalari master-rejaga muvofiq auksion savdolariga chiqariladi.

2023-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi doirasida Misrning "Arab international broker" kompaniyasi bilan Urgut tumanida uzunligi 2 kilometrga yaqin osma dor yo'li va turizm kompleksini tashkil etish bo'yicha 100 mln. dollarlik kelishuvga erishildi. Bundan tashqari, Urgut tumanida gastronomik ko'cha ham tashkil qilinmoqda.

Samarqand viloyatidagi Omonqo'ton qishlog'i Taxtaqoracha dovonining boshlanish qismida joylashgan bo'lib, ushbu qishloq Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanining Qaynar qishlog'i bilan chegaradosh. Qishloqning G'arb tomonida serqoya Qo'rg'ontog' savlat to'kib turadi. Tog'da Yetti qiz va Tomchi ota g'orlari joylashgan.

Bugungi kunda Kitob tumani "Qaynar" mahalla fuqarolar yig'ini turizm mahallasiga ixtisoslashtirilmoqda. Tumanda yiliga 200 ming xorijiy turistga xizmat ko'rsatadigan "Qaynar" turistik-rekreatsion zonasi tashkil etilmoqda. Ushbu mahallada 23 ta uy-mehmonxonasi tashkil qilinib, 2 km. yo'l, 1 km. ichimlik suvi hamda 3 km. elektr tarmoqlari yaxshilandi. Bundan tashqari, dovon bo'ylab o'tuvchi M-39 avtomagistraliga tutash hududlarda 74 ta savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchasi tashkil qilinib, mahalliy va xorijiy turistlar ko'p tashrif buyuradigan "Katta tosh" tandir markazining avtomobillar turarjoyi maydoni kengaytirildi.

Hozirda dovon hududida 3 ta sog'lomlashtirish markazi va 1 ta xostel faoliyat yuritib kelmoqda. Hududning turizm jozibadorligi oshib borayotganini inobatga olib qator yangi obyektlar qurilishi rejalashtirilgan. Xususan, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 200 o'rinli sog'lomlashtirish markazi, "Qaynarsoy villagy" MChJ tomonidan 16 gektar yer maydonida turizm kompleksi tashkil etilmoqda. Shuningdek, Taxtaqoracha dovonidagi "Qaynar ostonasi" MChJga qarashli yer maydonida 50 o'rinli mehmonxona barpo qilinadi. "Omad servis qurilish" MChJ ham qiymati 21 mlrd. so'm bo'lgan zamonaviy mehmonxona qurish loyihasiga start bergan. Bundan tashqari, "Tegirmonmon-tajservis" MChJga tegishli bo'sh turgan 1 gektar yer maydonida "Kitob patiri" brendi asosida Patir bozorchasi tashkil etish, "Voxa mash'ali" MChJ tomonidan 3 gektar maydonda kapsulali sayyohlik uylari qurish loyihasi tasdiqlangan.

Ayni paytda dovon bo'ylab o'tgan M-39 avtomagistrali bo'yida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Joriy yilning o'zida bu yerda 12 ming dona manzarali daraxt ko'chati o'tqazildi.

Turizm qo'mitasi xatida, shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Bashir qishlog'ida joylashgan "Hazrati Bashir" ziyoratgohi yo'lini ta'mirlash uchun Vazirlar Mahkamasi yig'ilishi bayoniga muvofiq 2024-yilda 4 mlrd. so'm ajratilgani keltirilib, bu ziyoratgohga har yili 400 mingdan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurishi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, Kitobda 15 mln. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish asosida zamonaviy osma dor yo'lini qurish bo'yicha Xitoyning "CAMC Engineering" kompaniyasi bilan kelishuv imzolangani aytib o'tilgan. Lekin afsuski, gazetamizning 29-may sonida chop etilgan "Haqqoniy va xolis so'z qalblarga chuqur singib, ezgu tuyg'ularni uyg'otadi" sarlavhali maqolada bayon etilgan buyuk bobokalonimiz Abu Muin Nasafiyning Qarshi tumani Qovchin qishlog'ida joylashgan ziyoratgohida sayyohlarni kutib olish uchun mehmonxona, ko'ngilochar maskanlar, hunarmandlar rastalari yo'qligiga oid tanqidiy fikrlar va mualliflar tomonidan kiritilgan takliflar bo'yicha hech qanday munosabat bildirilmagan. Biz Turizm qo'mitasidan mazkur masala yuzasidan ham javob kutib qolamiz.

**"Xalq so'zi".**

Festival

# XONOBOD SHAHRIDA "DUNYO SADOLARI" YANGRAMOQDA

*Andijonning eng xushmanzara go'shasi Xonobod shahrida "Dunyo sadolari" xalqaro milliy estrada san'ati festivalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.*

*Yurtimiz va xorijiy san'at yulduzlari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokidagi ochilish marosimida anjumanning maqsadi va ahamiyati haqida so'z yuritildi.*

– Prezidentimiz tashabbusi bilan ikkinchi bor o'tkazilayotgan "Dunyo sadolari" festivalidan ko'zlangan maqsad – milliy estrada san'atimizni xalqaro darajada targ'ib qilish, yurtimiz nufuzini oshirish, ayni chog'da go'zal tabiatga ega bo'lgan Xonobodning turizm salohiyatini namoyon etishdan iborat, – dedi Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov. – Ushbu festival nafaqat andijonliklar, balki viloyatimiz mehmonlariga xushkayfiyat ulashadigan, qalblarga unutilmas taassurot muhrlaydigan yorqin tadbirlardan biri bo'lib qoladi.

San'at anjumani doirasida o'zbek va xorijiy estrada yulduzlarining konsert dasturlari tashkil etilmoqda.

– Men O'zbekistonga ilk bor kelishim. Xonobod xushmanzara, chiroyli shahar ekan, – deydi Janubiy koreyalik sayyoh Li yong Pak. – Bugungi bayram madaniyat ahlining ijodiy hamkorligiga yo'l ochadi. Mehmondo'st diyorda shunday nufuzli festival ishtirokchisi bo'lganimdan xursandman.

Festival doirasida hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar, rassomlarning ijodiy ishlari namunalaridan iborat ko'rgazmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Uch kun mobaynida 1,5 million nafar mehmonlarning tashrifi kutilmoqda. Ularning maroqli hordiq chiqarishi uchun turli ko'ngilochar dasturlar namoyish qilinadi. Qolaversa, ko'chma hayvonot bog'i, dorbozlar namoyishi, 4 ta havo shari xizmati tashkillashtirilib, madaniyat xodimlari tomonidan taqdimotlar bo'lib o'tmoqda.

"Dunyo sadolari" festivali davom etayotir.

**Saminjon HUSANOV**
**("Xalq so'zi").**

**"Fiskal tahlillar" portalining ma'lum qilishicha, 2024-yilning dastlabki olti oyida 138 826 ta tashkilot 13,3 trln. so'm miqdorda soliq imtiyozlaridan foydalangan.**

# NAVQIRON AVLOD UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

1

Oliy ta’lim tashkilotlarining xorijiy til filologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3 va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida C1 darajadagi sertifikatga ega talabalariga o‘qituvchi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga ruxsat berilmoqda.

Ota-onalar va o‘quvchilar talabidan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan maktablar va kasb-hunar maktablarida chet tili sifatida nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillarini o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha dunyoning yetakchi markazlari, oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik asosida ularning xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlari “Ibrat farzandlari” va “Ustoz” loyihalariga tatbiq etiladi. Olis va chekka hududlarda faoliyat ko‘rsatuvchi eng yuqori ko‘rsatkichga ega 100 ta xususiy o‘quv markazining ta’lim jarayonida foydalanadigan bino-inshootlar uchun ijara to‘lovi xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining sinf xonalarini ta’lim jarayonidan bo‘sh vaqtda kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy o‘quv markazlariga berishga ruxsat etiladi.

Shuningdek, qarorga muvofiq yoshlar ishlari agentligi zimmasiga qator qo‘shimcha funksiyalar yuklandi. Jumladan, endilikda agentlik yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo‘lgan chet tillarni mukammal o‘zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish, xorijiy tillarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini



o‘zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha takliflar tayyorlashga mas’ul bo‘ladi. Xususiy o‘quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o‘rinni egallagan yigit-qizlarni rag‘batlantirish, yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishda ijtimoiy loyihalar, ko‘rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish choralarini ko‘radi.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘i asosida bugun har bir rahbar xodim yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha aniq mexanizmlarni belgilab olgan.

Shu o‘rinda navqiron avlodni tom ma’noda Yangi O‘zbekistonning baxtiyor yoshlari deyishga to‘liq asoslar bor. Buning isbotini so‘nggi yillarda barcha soha singari oliy ta’lim tizimidagi yoshlar hayoti misolida ham aytish, kuzatish mumkin.

Fikrimizni Buxoro davlat universitetida ta’lim sifati va imkoniyatlari borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari bilan davom ettirsak. Hozirda mazkur oliy ta’lim muassasasida 22 mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda. Ularga 900 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar dars berib kelmoqda.

Universitet yoshlari davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlar tufayli o‘tgan o‘quv yilining o‘zida qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Jumladan, bir nafar talabamiz Prezident stipendiyasi, o‘n nafari Navoiy nomidagi, bir nafari Bobur nomidagi, bir nafari Islom Karimov nomidagi, ikki nafari Mirzo Ulug‘bek nomidagi, bir nafari Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindorlari bo‘ldi. Shuningdek, o‘n nafari rektor, to‘rt nafari “Turon bank”, bir nafari Sarimsoqov nomidagi, bir nafari Pahlavon Mahmud nomidagi stipendiyalarni qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga, ikki nafar talaba Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo‘ldi. Yana bir nafar talabamiz “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tanlovi respublika bosqichi g‘olibi bo‘lgan bo‘lsa, 400 nafardan ortiq talaba-yoshlar xalqaro, respublika va viloyat miqyosidagi intellektual, ilm-fan, musiqa, san’at, sport, turizm, IT soha va yo‘nalishlarida o‘tkazilgan olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalarda qatnashib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

> *Yangi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning eng cho`qqisida doim yoshlar masalasi birinchi darajali vazifa qilib qo`yilgan. Buning isbotini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 79-moddasida “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog`lig`ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo`lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, deb belgilab qo`yilganida ham ko`rish mumkin.*

yoshlar kuni munosabati bilan Buxoro davlat universiteti talabalari uchun ko‘p tarmoqli universal sport majmuasi foydalanishga topshirildi. Bunga mos ravishda oliygoh 2023/2024 o‘quv yilida sport sohasida katta natijalarga erishdi. O‘tgan yilning noyabr oyida respublika oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘tkazilgan 5 ta sport turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Buxoro davlat universitetida o‘tkazilishi va ushbu bellashuvlarda oliygoh talaba-yoshlari bir necha sport turi bo‘yicha yuqori natijalarni qo‘lga kiritishi hamda yaqinda oliygohlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Talaba sport ligalari”da ham universitet jamoasi yutuqlarga erishishi yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlardan maqsadli, samarali foydalanishning natijasidir.

Mamlakatimiz rahbarining yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ilgari surgan besh muhim tashabbusi tom ma’noda bugungi kunda yurtimiz yoshlarining iqtidorini yuzaga chiqarishning asosiy drayveriga aylangan. Bugun universitetda mavjud “Kovorking”, “Bandlik”, “Volontyorlar” markazlari, “Zakovat”, “Quvnoqlar va zukkolar (QVZ)”, “Munozara”, “Talabalar teatr studiyasi”, “Talabalar sporti” kabi o‘nlab klublar, ellikdan ortiq fan, madaniyat, san’at, sport, intellektual to‘garaklar talaba-yoshlarning sevimli manziliga aylangan.

Aytish o‘rinliki, yaqinda Buxoro viloyatining shahar va tumanlari kesimida, ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!”, “Bilim va tafakkurimiz shu el uchun, shu yurt uchun!”, “Biz – kelajak bunyodkorimiz!” kabi shiorlar ostida o‘tkazilgan yoshlar oyligi doirasidagi tadbirlar soni va salmog‘i juda keng bo‘ldi. Ushbu tadbirlarda Buxoro davlat universiteti talaba-yoshlari ishtirokida 500 ga yaqin tadbirlar viloyatdagi shahar va tumanlar, mahalla, korxona, tashkilot va muassasalar hamkorligida yuqori saviyada, ko‘tarinki ruhda o‘tkazilgani e’tirofga molik.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning eng cho‘qqisida doim yoshlar masalasi birinchi darajali vazifa qilib qo‘yilgan. Buning isbotini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 79-moddasida “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, deb belgilab qo‘yilganida ham ko‘rish mumkin. Bu esa davlatning yoshlar oldidagi mas’uliyatini yanada kuchaytirmoqda, yangi loyihalar, yangi vazifalarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Obidjon HAMIDOV,**
**Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

# VENGRIYALIKLARNI HAYRATGA SOLGAN HAVO GIMNASTIKACHILARI



*Budapeshtning eng mashhur sirkida o‘zbekistonlik havo gimnastikachilari Bekzod Sobirov va Bobur Toshpo‘latovdan tashkil topgan “Duo Reflection” dueti chiqish qilmoqda.*

## Faxr

O‘zbek gimnastikachilarining har bir chiqishi yorqin va esda qolarligi bilan ajralib turibdi. Jamoa a’zolari akrobatika, gimnastika va milliy o‘zbek sirk san’ati elementlarini o‘zida mujassam etgan tomoshalarni namoyish etyapti.

Mamlakatimiz gimnastikachilarining ishtiroki O‘zbekiston va Vengriya xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan xalqaro madaniy almashinuv dasturining bir qismi bo‘ldi. Tadbir ko‘plab tomoshabinlarga, jumladan, diplomatik korpus vakillari, madaniyat xodimlari hamda Vengriya poytaxti aholisi va mehmonlarida katta taassurot qoldirdi.

O‘zbekiston vakillari namoyish etgan yorqin sahna ko‘rinishlari, akrobatik harakatlar va yuqori artistlik mahorati tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Ayniqsa, akrobatik halqalar yordamida amalga oshirilgan mashqlar sirk san’ati muxlislarining hayratiga sabab bo‘ldi.

Jamoa a’zolari bilan kechgan uchrashuvda o‘zbekistonlik sirk san’ati ustalari Vengriya taassurotlari bilan o‘rtoqlashdi.

“Guruhimizning nomi “Duo Reflection” bo‘lib, biz Budapesht shahrida O‘zbekiston sirk san’ati imkoniyatlarini taqdim etyapmiz. Vengriyalik tomoshabinlar chiqishlarimizni olqishlar bilan kutib olgani bizga madad bo‘ldi. Shuningdek, biz bilan birga Belgiya, Rossiya, Ukraina, Latviya, Fransiya, Efiopiya kabi davlatlardan kelgan sirk san’ati artistlari ham o‘z mahoratlarini namoyish etmoqda. Yevropa Ittifoqi sirk arenasida O‘zbekiston sharafini himoya qilayotganimizdan juda mamnunmiz”, dedi Bekzod Sobirov.

O‘z navbatida, Budapesht sirki vakillari o‘zbek gimnastikachilarining yuqori tayyorgarligini ta’kidlagan holda madaniy almashuv doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga umid bildirishdi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, mazkur tadbir O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda milliy sirk san’atining rang-barangligini namoyon etishda muhim qadam bo‘ldi. Bu o‘zbek madaniyatini Yevropada yanada ommalashtirish, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

**“Dunyo” AA.**
Budapesht

REKLAMA

## Tanlov savdolarida qatnashish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari vakillari diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrda “Ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining turar joy-maishiy sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 865-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga muvofiq, Qorovul qo‘shinlari 7535-harbiy qism harbiy xizmatchilari uchun Toshkent viloyati Chirchiq shahri Madaniyat mahallasi A. Temur ko‘chasida joylashgan 0,60 gektar yer maydoniga ko‘p kvartirali uylarni “tayyor holda topshirish” shartlari asosida qurish bo‘yicha investor yoki qurilish tashkilotlarini aniqlash maqsadida tender savdolari o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tender savdolarida qatnashish istagini bildirgan investor yoki qurilish tashkilotlari vakillaridan 90-607-65-80 va 99-088-69-86 raqamlariga bog‘lanib, “Texnik topshiriq”da ko‘rsatilgan shartlar asosida unda qayd etilgan hujjatlarni taqdim qilishi talab etiladi *(murojaat etuvchilarga balansda saqlovchi tomonidan tasdiqlangan “Texnik topshiriq” PDF shaklida Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali taqdim etiladi)*.

Shu jumladan, “Tayyor holda topshirish” shartlari asosida qurilishi rejalashtirilgan ko‘p qavatli uylar bo‘yicha g‘olib bo‘lgan investor yoki qurilish tashkiloti tomonidan loyiha va loyihaoldi hujjatlarni tayyorlash ishlari uchun xarajatlar moliyalashtiriladi *(loyiha-smeta, geologiya o‘rganish va qurilish ishlariga ruxsat olish hamda boshqa hujjatlar)*.

Qurilishi rejalas htirilgan ko‘p qavatli uylar to‘liqligicha g‘olib bo‘lgan investor yoki qurilish tashkilotining mablag‘i hisobidan barpo etiladi, balansda saqlovchi tomonidan mablag‘ ajratilmaydi. Shuningdek, balansda saqlovchi tomonidan 0,60 gektar yer maydoni bo‘yicha tegishli hujjatlar tayyor bo‘lganidan so‘ng g‘olib bo‘lgan investor yoki qurilish tashkilotiga topshiriladi. “Tayyor holda topshirish” shartlari asosida qurilgan uylarning 50 (ellik) foizi balansda saqlovchi 7535-harbiy qismga arzonlashtirilgan holda topshiriladi *(bir metr kvadrat uyni qurish uchun ketgan xarajatning tannarxi bo‘yicha)* va qolgan 50 (ellik) foiz uylar g‘olib bo‘lgan investor yoki qurilish tashkiloti tomonidan bozor narxida aholiga sotiladi.

Tender savdolari Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi binosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

**Mazkur shartlar va balansda saqlovchi tomonidan tasdiqlangan texnik topshiriqda ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha hamkorlik qilish istagida bo‘lgan investor yoki qurilish tashkilotlarining vakillari 2024-yil 24-avgust kuni soat 15:00 ga qadar o‘z takliflarini yopiq paketda muhrlangan holda quyidagi manzilga yuborishi mumkin: Toshkent viloyati, Nurafshon shahri, Toshkent yo‘li ko‘chasi, 1-uy.**
**(Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi).**
**Murojaat uchun tel.: 90-607-65-80, 99-088-69-86.**

YANGILIKLAR xabarlar

# TAFSILOTLAR

## Sayyohlik sohasida kelishuvga erishildi

*O‘zbekistonning Kuvaytdagi elchixonasi ko‘magida “Alsalam Media Company: Project Development Consultant” kompaniyasi vakili Jamol Abdulla ad-Duaijning Samarqand viloyatiga ishchi safari tashkil etildi.*

Xususan, Payariq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Shohruh Eshonqulov bilan uchrashuvda hududga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda Imom Buxoriy majmuasi imkoniyatlarini hisobga olgan holda sayyohlar oqimini ko‘paytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘z navbatida, mehmon Imom Buxoriy majmuasi joylashgan hududni turizm obyekti sifatida yanada rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini bildirdi. Uchrashuv yakunida tomonlar investitsiya va sayyohlik sohasida ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida kelishuvga erishdi.

## Xalqaro matematika musobaqasidan 18 ta medal

*Hindistonda bo‘lib o‘tgan xalqaro matematika musobaqasida o‘zbekistonlik o‘quvchilar muvaffaqiyatli ishtirok etdi.*



Dunyoning 30 ta davlatidan 576 nafar iqtidorli yosh qatnashgan bilimlar bellashuvi yakunida hamyurtlarimiz 3 ta oltin, 4 ta kumush va 11 ta bronza medallarni qo‘lga kiritdi. Musobaqada Ozodbek Axtamov, Asadbek Boboqulov va Dildora Mahkamova oltin medalga sazovor bo‘ldi.

## Talabalarga qulaylik

*Qarshi davlat universitetida turizm amaliyot markazi va muqobil energiya manbalaridan foydalanish laboratoriyasi ochildi. Uning ochilishida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov ishtirok etdi.*

Laboratoriya fotoelektrik quyosh qurilmalari ishlashi va quyosh panellarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi monitoringini olib borishga mo‘ljallangan. Bu yerda muqobil energiya manbalari yo‘nalishida ta’lim oladigan talabalarning amaliyot o‘tashi, magistrantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish imkoniyati yaratilgan.

Markaz 4 yulduzli mehmonxona andozasida bunyod etilgan bo‘lib, mehmonlarni kutib olish, joylashtirish, umumiy ovqatlantirish xizmatlari, anjumanlar zali va o‘quv xonasini o‘z ichiga oladi.

## Tikuvchilik dastgohlari – daromad manbai

*Surxondaryo viloyati Xalq qabulxonasining “Murojaatdan – daromadga” loyihasi doirasida Denov tumanida istiqomat qiluvchi 100 nafar ishsiz xotin-qizga tikuvchilik dastgohlari topshirildi.*



Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda xotin-qizlar bandligini ta’minlash yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ekani alohida ta’kidlanib, yaratib berilayotgan imkoniyatdan unumli foydalanish zarurligi qayd qilindi.

Loyiha doirasida vohadagi 91 ta mahallada istiqomat qiluvchi 505 nafar ishsiz xotin-qizning o‘zini o‘zi band qilishi uchun sharoit yaratish maqsadida ularga tikuvchilik dastgohlari topshirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Andijon shahrida universal sport majmuasi qurilib, foydalanishga topshirildi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonovov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 20.55 Topshirildi — 02.50 1 2 3 4 5 6